

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 37 782,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 8,8 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 111,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,9 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	31 191,7	37 782,0	108,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 517,5	37 129,6	108,7
mahsulotlarga sof soliqlar	674,2	652,4	114,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 517,5	37 129,6	108,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	11 893,5	14 035,9	105,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 436,9	9 855,2	115,0
sanoat	5 418,2	7 412,4	114,1
qurilish	2 018,7	2 442,8	117,3
xizmatlar	11 187,1	13 238,5	108,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 783,3	4 459,1	109,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 196,8	1 563,6	117,4
boshqa xizmat tarmoqlari	6 207,0	7 215,8	105,5

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 24 395,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,7 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,8	98,3
mahsulotlarga sof soliqlar	2,2	1,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	39,0	37,8
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	24,4	26,6
sanoat	17,8	20,0
qurilish	6,6	6,6
xizmatlar	36,6	35,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12,4	12,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,9	4,2
boshqa xizmat tarmoqlari	20,3	19,4




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,7 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 37,8 % ni, sanoat tarmog'i 20,0 % ni, qurilish 6,6 % ni va xizmatlar sohasi 35,6 % ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 2,1 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,4 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,2 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,1 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,6 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,9 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 3,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 105,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 37,8 %), sanoatda – 114,1 % (20,0 %), qurilishda – 117,3 % (6,6 %), xizmatlar sohasida – 108,0 % ni (35,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,1 % (12,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 117,4 % (4,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 105,5 % dan (19,4 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 111,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat – 119,9 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 112,0 % tarmoqlarida qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 26 354,5 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 22 502,2 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 71,0 % ni (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida – 73,7 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

**Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

